

“OLIV TA’LIM TIZIMIDA RANGTASVIR ASARLARIDAN NUSXA KO‘CHIRISH AMALIYOT ISHINING IZCHILLIK JARAYONI”

Artikov G‘ayrat Azizovich
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Dastkohli rangtasvir” kafedrası professori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Oliy ta’lim tizimida rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirish amaliyot ishining izchillik jarayoni” mavzusi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Dastkohli rangtasvir” yo‘nalishi talabalari uchun Buyuk rassomlar asaridan nusxa ko‘chirish orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san‘at, rangtasvir, nusxa, jarayon, amaliyot, rangtasvir texnikasi, usul, rassom, shogirt.

Ta’lim tizimida rangtasvir asarlarida nusxa ko‘chirish amaliyot ishining izchillik jarayoni dastlab Yevropaning yirik shaharlarida ko‘zga ko‘ringan o‘z rangtasvir asarlari bilan dong taratgan usta rassomlari o‘z rassomchilik ustaxonalarida shogirtlar tayyorlagan.

Ular rangtasvir san‘atini o‘rgatishdan avval tasviriy san‘atda qo‘llaniladigan ashyolarni tayyorlashni o‘rgatishdan boshlagan. Tasviriy san‘atga qiziqgan yosh bola avvalo ishni bo‘yoq tayyorlash, ular yangi madanni ezib mayda kukun holatiga keltiradi so‘ng tarkibidagi turli begona ifloslanishlardan yuvib tozalaydi. O‘quvchilar toza pigment holatiga kelgunicha bo‘lib o‘tgan jarayonni puxta o‘rganishga majbur bo‘lgan. Ushbu jarayon rassom shogird uchun o‘ta muhim hisoblangan. Ushbu jarayondan o‘tgan shogird chizma tasvirlash uchun qo‘yilgan. Shu tarzda shogirdlarning sabri sinalgan, sabri yetmagan shogird ustaxonani tark etgan.

Shogird ustaxonada ustaning chizmatasvir asarlaridan nusxa ko‘chirib ustaning maxoratidan baxramand bo‘lib, amalda ustaning chizmatasvir usul uslublarini o‘rganib borgan. Bu keyingi ishlarida o‘ta muxim jarayonlardan biri hisoblangan. Ana undan so‘ng atrofdagi muhitdan, naturadan, chizma qoralama chiza boshlagan. Masalan, Verokkio ustaxonasida yosh Leonardo bajargan burmalarni chizmasini misol keltirish mumkin.

Chizmatasvirlash jarayonidan o'tgan deb hisoblagan shogirtni usta o'z rangtasvir asarlaridan birini nusxa ko'chirish uchun qo'ygan. Ushbu jarayon ham o'ta muxim hisoblangan. Ustaxonada yosh bolalardan boshlab, o'smir yoshlar va katta yoshdagi talabalar ham tahsil olishar edi.

Qalamda tasvirlashga ustalar katta e'tibor berishgan. Qalam tasvirlashdan keyin o'z rangtasvir asarlaridan, usta nusxa ko'chirishga ruhsar bergan. Nusxa ko'chirish jarayonidan a'lo darajada bilim olgan shogirtga naturadan ishlashga, so'ng o'z rangtasvir asarlarini davom ettirishga ruxsat olgan. Rassomlar ustaxonasida turli buyurtmalarni bajarishgan. Verokkioni ustaxonasida ham shunday bo'lgan.

Rassom o'z ustaxonasiga ega bo'lish, unga rahbarlik qilish, ruhsatnoma olish uchun shahar hokimiyatiga murojat qilgan. Ustaxona ochish talablaridan biri usta rassom uylangan bo'lishi shart edi, chunki uning umr yo'ldoshi o'quvchi bolalarni oziq-ovqatiga mas'ul hisoblangan.

Misol: Albert Dyurer o'zi ustaxona ochmoqchi bo'lganida unga uylanish shartligi aytilgan Albert Dyurer "Avtoportret" yozgan va bo'lajak turmush o'rtog'iga yuborgan.

Italiya, Germaniya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlariga "Usta shogirdlik" an'anasi rasm bo'lgan to XVII asrning o'rtalarigacha rivojlangan. Keyinchalik XVIII asrdan boshlab Yevropa davlatlarida birin ketinlikda akademiyalar tashkil topa boshlagan. Akademiyalarda mutaxassislik fanlarida chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya, plastik anatomiyalardan tashqari, perspektiva ijtimoiy gumanitar fanlar: din va tarix ham kiritilgan. Chunki dinni va tarixni bilmagan talaba mukammal ilm egallamagan hisoblanadi. Akademiyaga yetuk usta rassomlar taklif etilgan. Dastlab 1648-yil tarixda Lyudovik XIV qirol tomonidan qirollik Badiiy Akademiyasi tuzilgan. 1696-yil Fridrix I tomonidan Germaniyada Badiiy Akademiya, 1757-yil 6 noyabirda Sank Peterburgda imperator Badiiy Akademiyasi, 1784-yil Florensiyada Nafis san'at Badiiy Akademiyasi ochilgan shunday qilib butun Yevropada birin ketin Badiiy Akademiyalar tashkil etilgan.

Sankt Peterburg imperator Badiiy Akademiyasi bitiruvchilari diplom ishlari yuksak bahoga sazovor bo'lganlari davlat tomonidan stipendiya bilan ta'minlangan va Italiyaga malakasini oshirish uchun yuborilgan. Ular nafaqat tabiatdan naturadan ishlashgan, yana buyuk rassomlarning devoriy rangtasvir asarlaridan "nusxa ko'chirish" ishlarini amalga oshirishgan. Sank Peterburg Badiiy Akademiyasiga kirsangiz Rafael zali mavjud. Undagi devoriy rangtasvir asarlari stipendiyatlar tomonidan Italiyada nusxa ko'chirish amaliyoti davrida ishlangan asarlardir.

Rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirishga katta e‘tibor berilgan chunki nusxa ko‘chirish jarayonida yosh rassom yuksak rangtasvirchi rassomlarni ishlash uslubini, mahoratini, bo‘yoqlardan unumli foydalanishini, koloritik jihatlarini o‘zlashtirishi natijada olgan bilim va amaliy tajribalari katta katta natijalarga erishishiga muvaffaqiyatli tajriba maktabi bo‘lgan. Ushbu nusxa ko‘chirish amaliyoti Sank Peterburg Badiiy Akademiyasi tajribasi asosida an‘ana tarziga aylanib, hozirgi kungaqadar bu an‘ana davom etib kelmoqda. Boshqa xorijiy oliygohlarda ham tasviriy rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirish amaliyotiga katta e‘tibor bilan qaraladi. Bugungi kunda rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirish, badiiy ta‘lim tizimida yanada ham muhim dolzarb masala hisoblanadi.

Buyuk klassik rangtasvir rassomlarning mohirona yaratgan asarlari, yosh avlod, ijotkorlarni realistik asarlar yaratishida muhim manba badiiy maktab bo‘lib qolmay, balki ularning asarlarini nusxa ko‘chirish o‘zi tushunib, ochilmagan nozik usul uslubiy sir asrorlarini, yosh rassomlar o‘zlari uchun kashf etadilar. Ruhan boy bo‘lib tasviriy san‘at yaratilishida ma‘naviy badiiy asar qay darajada yuksak ekanligini anglab yetadi va o‘zi ham ulardan o‘rnak olib mohirona asarlar yaratishida yuksak tajribaga ega bo‘ladi.

Bizning oliygohimizda “Dastgohli rangtasvir” kafedrasida badiiy ta‘lim sifatida rangtasvir chizma tasvir asarlaridan nusxa ko‘chirish amaliyoti 1953-yildan beri olib boriladi. Ushbu yillar ichida har yili muzeylarda klassik rassomlarning ishlaridan nusxa ko‘chirish amaliyoti dars tizimida o‘tiladi. Turli yillarda talabalar tomonidan bajarilgan nusxa asarlar bu yerda saqlanadi. Bular Dominiko Fettining “Niqob ushlagan erkak” asari Burmakin tomonidan, shuningdek Dameniko Fettinning “Tovitni davolash” asari Nodira Oripova tomonidan Sankt Peterburgdagi Ermitajda asl nusxasidan ko‘chirilgan. Bu nusxa ko‘chirish ishlari hozirgi kunda institut laboratoriyasida saqlanmoqda. O‘zimizning O‘zbekiston davlar san‘at muzeyida nusxa ko‘chirish amaliyotidan turli yillarda asarlar saqlanmoqda bular: P.P Benkovni “Tatar qizi” asarini Q. Ro‘zmetov tomonidan nusxa ko‘chirilgan, Rahim Ahmedovni “Ona o‘ylari” asari O. Muhammadaliyev tomonidan nusxa ko‘chirilgan barchasini nomma nom aytib o‘tish uzoq vaqt talab etadi.

Rangtasvir texnika va texnologiyasi fani va muzeyda nusxa ko‘chirish amaliyotidan dastlabki yillarda A.A Goldrey shu soha bo‘yicha 1983-yilgacha dars berib kelgan. 1983-yildan beri men Artikov G.A “Nusxa ko‘chirish “amaliyotiga rahbarlik qilib “Rangtasvir texnika va texnologiyasi” fanidan dars berib kelmoqdaman. Ushbu yillarda qo‘l ostimda taxsil olayotgan talabalar respublikada taniqli rassomlar o‘z asarlari bilan respublika va xorijda tanilgan yetuk rassomlarga aylanishgan. Bular

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi unvoniga sazovor bo‘lgan rassomlar: J.Usmonov, O.Qozoqov, Abdumalikovlar. Talabalik yillarida ular rangtasvir texnika va texnologiyasi va rangtasvirdan “nusxa ko‘chirish” amaliyotiga katta ishtiyot bilan qarashgan va yuksak natijalarga erishgan.

Klassik rassomlarning rangtasvir va chizmatasvir asarlari doimo yosh rassomlarning nazarida bo‘lib: Titsian, Paolo Veroneze, Albert Dyurer, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buanorotti, Rafael Santi va rus buyuk rassomlari Aleksandr Ivanov, Bryulov, Suyirkov, Korovin asarlari o‘rgansa arzigulik badiiy maktab bo‘lib kelyapdi. Ularning asar yaratish jarayonidagi texnika va texnologik jarayonini nusxa ko‘chirish jarayonida, bosqichma-bosqich o‘qib, o‘rganib va amalda talaba o‘z tajribasidan o‘tkazib borishi bu badiiy asarni takrorlash har bir rassomni o‘zi ixtiro etgan usul uslubini aslidek etib, anglab, takrorlab o‘tish yosh rassom uchun mashaqqatli va shu bilan birga yoqimli badiiy jarayondir. Har bir rassom bu takrorlanmas o‘ziga xos bo‘lgan individual usulga ega bo‘lgan shaxs. Uni asar yaratish jarayonida qo‘llagan turli usul uslublari, koloristik jihatlari, texnika texnologiya bilimlarni o‘z o‘rnida qo‘llashlari, nozik sirlari, talaba asl badiiylikni anglashi, chuqur bilim tajriba olish uchun buyuk manbaa hisoblanadi.

Bizning institutimiz dastgohli rangtasvir bo‘limi 3-bosqich talabalari har yili muzeylarda Yevropa va rus rassomlari asarlaridan bosqichma bosqich har bir rassomni asarini aslidan nusxa ko‘chirib, sir asrorni o‘rganib, terxnika texnologik jarayonini o‘tab kelyabdi. Institutimiz texnika va texnologiya laboratoriyamizda o‘tilayotgan amaliy tajriba boshqa Yevropa laboratoriyalarida o‘tkazilayotgan tajribalari bir-biriga yaqin. Taniqli rassomlar Kamol Boboyev, J.Izentayevlarni aytishicha bizning tajriba usullarning dasturlari laboratoriyalaridabo‘lib o‘tayotgan amaliy darslariga o‘xshash.

Xulosa qilib aytish kerakki: barcha badiiy maktablarga texnika-texnologiya darslari, laboratoriya amaliyoti, klassik rassomlarni asarlarini o‘rganib, ularning tajribasiga suyanan holda amaliyotga o‘z tajriba mahoratlarini dars jarayonlarida orttirib kelyapdi.

Institut tajriba laboratoriyasida “Muzeyda nusxa ko‘chirish” amaliy tajriba ishlaridan na’munalar: Serekeyev.B tomonidan Shoppenning “Rebeka quduq oldida” asarini bosqichma-bosqich bajarilgan.



Rebeka quduq oldidaasl nusxa



Rebeka quduq oldida 1-bosqich



Rebeka quduq oldida 2-bosqich



Rebeka quduq oldida 3-bosqich



Rebeka quduq oldida 4-bosqich yakuniy

Institut tajriba laboratoriyasida “Muzeyda nusxa ko‘chirish” amaliy tajriba ishlaridan na‘munalarni bosqichma-bosqich ishlash jarayonini ko‘rib keyin o‘z tajribangizda ushbu usuldan foydalangan holda talabalar nusxa ko‘chirish ishini bajarish mumkin.

Italyan uslubi yuqorida ko‘rsatilgan bunda: tag asosdan boshlab rangli gront va uni ustiga oq rangda shakl keltirish jarayoni ko‘rsatilgan.



Italyan usuli



Albreht Dyurer Avtoportret

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Бергер Е. История развития масляной живописи. (1961)
2. Xudayberganov R.A. Махобатли rangtasvir texnika va texnologiyasi.- Toshkent: 2015.
3. Artikov G.A. Materialshunoslik texnika va texnologiyasi. – Toshkent: INFOKAPITALGROUP 2018.
4. Киплин Д.И. Техника живописи. - Москва: СВАРОГ и К, 2000.